


441
8-48

ISMATOV URGAT SHUHRA TOYIGI

RANGTASVIR



344, 344
I-78

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Ismatov Ulfat Shuhratovich

RANGTASVIR

O'quv qo'llanma

“60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi”
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

-14042/3-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

CHIRCHIQ-2023

UDK: 741/744

BBK: 85.14

I-78

Muallif:

Ismatov Ulfat Shuhratovich

Taqrizchilar:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrası
professori p.f.n B.B. Baymetov

O'zbekiston davlat

san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyat"
kafedrası dotsenti
s.f.n. I.R. Abduraxmonov

ISBN 978-9943-8977-6-2

Аннотация

Mazkur "Rangtasvir" nomi o'quv qo'llanma "60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llamada rangtasvir fanidan amaliy mashg'ulot mavzulari yuzasidan nazariy ma'lumotlar berilgan, hamda amaliy ishlar bajarilishi metodik izchillikda olingan materiallar va grafik materiallarda tasvirlash haqida ma'lumotlar, hamda atamalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ishlashlari uchun namunalar mavjud. Qo'llanma xorijiy hamda mahalliy adabiyotlar yug'ungunida amaldagi davlat ta'lim standartlari va fan dasturlariga mos holda ishlab chiqilgan. O'quv qo'llamadan "60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi talabalari hamda ilmiy izlanuvchilar, san'at maktablari, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari, to'g'arak rahbarlari va havoqot rassomlar ham foydalanishlari mumkin.

Аннотация

Учебно-методическое пособие "живопись" предназначено для студентов специальности "60111200 - Изобразительное искусство и инженерная графика". В учебном пособии даны теоретические сведения по темам практических занятий в области живописи, а выполнение практических работ приложено в качестве примера в методической последовательности. Для закрепления знаний учащихся приведены сведения о графических материалах и представлении в графических материалах, а также термины, список используемой литературы, примеры для самостоятельной работы.

Учебное пособие разработано в соответствии с действующим государственным образовательным стандартом и научной программой, объединив зарубежную и отечественную литературу.

Изученного пособия "60111200 - Изобразительное искусство инженерная графика" студенты и научные сотрудники, художественные школы, учителя общеобразовательных школ, также могут быть использованы клубными руководителями внешкольных учреждений и самостоятельными художниками.

Annotation

This study guide entitled "Painting" is intended for students of "60111200 - Fine arts and engineering graphics". The training manual provides theoretical information on the topics of practical training in the field of painting, and the implementation of practical work is given as an example in methodical consistency. To strengthen students' knowledge, there are information about graphic materials and representation in graphic materials, as well as terms, a list of used literature, and examples for independent work.

The manual was developed in accordance with the current state educational standard and science program, combining foreign and local literature.

From the study guide "60111200 - Fine arts and engineering graphics" students and researchers, art schools, general secondary school teachers, extracurricular institutions can also be used by garak leaders and amateur artists.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik ishlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, sohaga oid ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, pedagogik ta'lim muassasalarining oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4623 sonli qarorida pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab o'tilgan.

Yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida ta'biyolab voyaga yetkazishda tasviriy san'at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtlari Tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosi bo'lishini taqozo etib, pedagog va olimlar zimmasiga yubok vazifalarni yuklaydi.

Tasviriy san'at fani umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Tasviriy san'at fanidan yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Tasviriy san'at – bu go'zalliklar dunyosi. Uni tushunish va qabul qilish uchun eng avvalo tasviriy san'atning ifodaviy tilini o'zlashtirish, uning turlari va janrlari haqida tushunchaga ega bo'lish va rangtasvir texnikasi va texnologiyasi haqidagi bilimlarni egallashi lozim.

Shuning uchun ham tasviriy san'at o'qituvchisi o'zish faoliyatida o'quvchilarga

faqat san'atning nazariy asoslari va uning ifodaviy tilinigina o'rganib qolmasdan, balki tasviriy san'at materiallari va asbob-uskunalari haqidagi ma'lumotlarni ham yetkazishlari juda muhim.

Tasviriy san'atni o'rganish, uning texnik asoslarini o'rganishdan boshlanadi.

Xuddi shu bilimlar tasviriy san'atning turli ko'rinishlari bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishga sharoit yaratadi.

Pedagogik Oliy ta'lim muassasalarining tasviriy san'at ta'lim yo'nalishlarida va san'at maktablarida materialshunoslik va tasviriy san'at vositalariga kam e'tibor qilinadi. Bu esa ta'lim jarayonida juda katta uzilishlarga olib keladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada rangtasvirning rivojlanish jarayoni va ranglarning paydo bo'lishi, tayyorlanishi haqida hamda turli grafik materiallar bilan tanishtirishni va rangtasvir texnikasi va texnologiyasining ijodiy imkoniyatlarini ochib berishni maqsad qilib qo'yilgan.

Grafik materiallarning xususiyatlari bilan tanishish ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Talabalar tasviriy san'atning texnik asoslarini o'rganib bo'lishganidan so'nggina pedagog-rassom ularni qalamtasvir va rangtasvirga o'rgatadi.

Kimki rangtasvirni o'rganmoqchi bo'lsa, u doimiy amaliy mashqlar bajarishi va rangda har xil tajribalar o'tkazib turishi zarur.

Rangtasvir mashg'ulotlari orgali yosh rassom-pedagoglar atrof-muhit, borligini kuzatish, idrok etish, tahlil qilib to'g'ri tasvirlashni o'rganishadi. Bu esa bo'lajak pedagog-rassom kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan grafik materiallarda tasvirlash texnikasini o'zlashtirishida katta metodik yordam beradi. Bunday bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan puxta egallash orgali talabada ijodkorlik xislatlari shakllanib haqiqiy pedagogik mahoratga erishishi mumkin. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, faqat kitobni o'qish bilan mo'yqalamda ishlash mahorati oshib qolmaydi. Ijodiy mahorat tinimsiz, uzoq vaqt amaliy mashqlar bajarish jarayonida o'sib boradi. Amaliy mashqlar maqsadga yetishning eng to'g'ri yo'li bo'lsa, kitob esa undagi harakatlarni boshqaruvchi yo'l ko'rsatuvchi mayoq hisoblanadi¹.

1 X.E. Sultanov. RANGTASVIR (Akavrelda ma'umot ishlash). O'quv qo'llanma. Toshkent-2019., 5 b.

Rangtasvir materiallarini yaratish texnologiyasi amaliy kinoyo asosida (ifodaladi) va ilmiy xarakterga ega. Bu texnologiyani rangtasvirchilar amaliy ish jarayonida yaratishgan va yillar davomida o'rganishgan.

Qadimgi	davrlardan	to	hozirgi	kungacha	yangi	tasviriy
vositalarning	rivojlanishi	rangtasvir	qonun-qoidalarini	san'at,		
shundaydek	hunarmandchilik	sifatida	ko'rsatib	kelgan.		

Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi

Tasviriy san'atning paydo bo'lishi, rivojlanish jarayonlari va insoniyatning ilk ijodiy ijod namunalari ibtidoiy to'lda davriga borib taqaladi. G'orlardagi devoriy rasmlar, toshdan yasayakdan yasalgan haykalchalar, tosh pitalardagi vakiyik shoxlari pitalaridagi naqshinkor estetik bezaklar shuni ko'rsatadiki, san'at, hali inson ijodiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishidan birmuncha ilgari yuzaga kelgan.

San'atning yuzaga kelishi insoniyat taraqqiyotida buyuk bosqich bo'lgan. Jam'iyat hayotining ruhiy va iqtisodiy asoslari endi shakllanyotgan bu davrni tarixchi va arxeolog olimlar o'zlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida tasviriy san'atning dastlabki yodgorliklari yuqori polestik davriga oid ekanligini tasdiqlaydilar. Ularning yozishicha ijod namunalarning shakllanishi ibtidoiy jamoa tuzumining nisbatan yetilishi, uning o'chlikning shakllanishi, matiraxning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Ibtidoiy san'atning ilk namunalariida ovchilik bilan shug'ullangan inson o'z muhitini — ov manzaralarini aks ettirib g'orlarning devorlariga, qoyatoshlar va toshqalarga ishlagan tasvirlarida (bo'yab, bo'yima hosil qilib ishlagan), loydan tayyorlangan, toshni yo'nib ishlagan haykallarda ovlanadigan hayvonlar (zubr, ot, kiyik, mamont, yovvoyi hayvonlar va b.), odamlarini (ko'proq ayollar) ni ifodalagan (t'rasmiy)ning La-Ferrasi, Lasko g'orlari, Ispaniyaning Altamira g'ori, Sahroi Kavarning Tassilin-Ajar degan joyidagi qadimgi odamlar yashagan qarog'oxlar va b.). Ibtidoiy san'atkorlar tasviriy san'atning hamma turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) ga mansub asarlarida hayotni sinchkovlik bilan kuzatganlari ko'zga tashlanadi. Odamlar va odamsifat maxluqlar, qo'l izlari, chizma belgilar va boshqa tasvirlar kam uchraydi. G'oridagi tasvirlar qora, qizil, sarig va jigarrang mineral